


I S T E ' M O L B O Z O R I

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Andijon viloyati bo'yicha 2019 yil yanvar-aprel oylarida chakana savdo aylanmasi 3787,3 mlrd so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,5 % ga oshdi.


2019 yil yanvar-aprel oylarida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'atlari (o'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda)



O'tgan yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha tumanlarida o'sish sur'atlari kuzatildi. Xususan, yuqoriroq o'sish sur'atlari Andijon shahri (9,1 % ga),

Jalaquduq (5,4 % ga), Boʻz (5,4 % ga), Oltinkoʻl (5,3 % ga) va Andijon (4,8 % ga) tumanlarida. Yuqori boʻlmagan oʻsish surʼatlari Qoʻrgʻontepa (2,6 % ga), Baliqchi (2,2 % ga) tumanlarida kuzatildi.

Tuman(shahar)larning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, foizda



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega boʻlgan Andijon shahri (31,8 %), Shaxrixon (13,1 %), Asaka (10,8%), Qoʻrgʻontepa (8,5 %) va

Baliqchi (5,6 %) tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

Shaharlar va tumanlar nomi	Ming so'm	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda
Viloyat bo'yicha:	1232,9	103,7
Andijon sh	2 773,7	107,5
Shaxrixon t.	1 706,3	101,7
Qo'rg'on tepa t.	1 521,8	100,8
Asaka t	1 279,5	101,9
Baliqchi t	1 080,8	100,4
Honobod sh	1 055,3	101,9
Ho'jaobod t.	1 042,3	102,2
Pahtaobod t.	799,8	102,3
Andijon t	787,9	102,5
Oltinko'l t.	752,0	103,4
Marhamat t.	675,5	102,2
Buloqboshi t.	592,7	102,6
Jalaquduq t.	580,5	103,7
Izboskan t.	564,8	102,0
Bo'z t	537,6	103,4
Ulug'nor t.	535,0	102,6

Ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 3,7 % ga oshib, 1232,9 ming so'mni tashkil etdi (2018 yil

1071,1 ming soʻmni tashkil qilgan edi). Oʻrtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori koʻrsatkichlari Andijon shahri (2773,7 ming soʻm), Shaxrixon (1706,3 ming soʻm) va Qoʻrgʻontepa tumanlarida (1521,8 ming soʻm) kuzatildi.

2019 yil yanvar-aprel oylarida chakana savdo va umumiy ovqatlanishda yirik korxonalar savdo aylanmasi



Mln.soʻm


Oʻtgan yilning shu davriga nisbatan, foizda

Viloyat boʻyicha	483099,8	146,9
Boʻz t	3 313,8	32,9 m
Oltinkoʻl t.	6 348,1	5,0 m
Asaka t	36 508,5	4,4 m
Baliqchi t	5 712,5	2,2 m
Holʼjaobod t.	1 853,2	163,3
Andijon sh	383 980,6	148,4
Honobod sh	1 879,3	124,8
Qoʻrgʻontepa t.	3 496,5	117,2
Ulugʻnor t.	126,8	115,1
Buloqboshi t.	2 066,2	108,6
Andijon t	14 282,1	96,7
Jalaquduq t.	2 117,6	91,7
Marhamat t.	2 502,4	88,1
Shaxrixon t.	12 607,3	84,4
Pahtaobod t.	3 723,2	69,9
Izboskan t.	2 581,7	25,7

KICHIK TADBIRKORLIKNING CHAKANA SAVDODAGI ULUSHI

Kichik tadbirkorlik (бизнес) sub'ektlarining tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,8 %ga o'sdi va jami chakana savdo tovar aylanmasi hajmining 76,1 % ini tashkil qildi. Kichik tadbirkorlik sub'ektlari umumiy tovar aylanmasi hajmining 2240,7 mlrd.so'mini yakka tartibdagi tadbirkorlar tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning ulushi (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi umumiy hajmida kichik tadbirkorlik (biznes)ning eng katta ulushi Xo'jaobod -87,6 %, Baliqchi -87,3 %, Qo'rg'ontepa - 86,1%, Marhamat- 85,5% va Ulug'nor -85,0 % tumanlarida. Eng past ulush Andijon shahar- 59,5 % va Bo'z -79,0 %, Asaka tumanlarida -79,4 % qayd etildi.


ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2019 yil yanvar-aprel oylarida ulgurji tovar aylanmasi hajmi 610,9 mlrd. so'mni yoki 2018 yilning shu davriga nisbatan 111,2 % ni tashkil qildi. Ulgurji

tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan Izboskan tumanida 72,2 %ga kamayish kuzatildi.

Kichik tadbirkorlik (biznes) sub'ektlarining ulgurji savdo tovar aylanmasi 1,7 %ga o'sdi va 342,7 mlrd.so'mga yetdi, umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi 56,1 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik (biznes) sub'ektlarining ulgurji savdodagi ulushi, (foizda)



2019 yil yanvar-aprel oylarida ulgurji savdoda yirik korxonalar savdo aylanmasi



Mln. soʻmda

**Oʻtgan yilning shu
davriga nisbatan, foizda**

Viloyat boʻyicha	268 249,1	126,4
Andijon t.	59,5	149,9
Qo'rg'on t.	23 662,4	137,6
Andijon sh.	237 787,4	128,0
Oltinko'l t.	57,9	92,0
Baliqchi t.	95,1	81,3
Pahtaobod t.	63,8	61,1
Shaxrixon t.	3 737,1	59,2
Bo'z t.	35,5	58,2
Ulug'nor t.	26,6	47,2
Jalaquduq t.	32,3	35,2
Marhamat t.	30,7	23,4
Ho'jaobod t.	55,6	20,5
Izboskan t.	115,3	6,0

2019 yil yanvar-aprel oylarida ulgurji savdo aylanmasining oʻtgan yilning shu davriga nisbatan oʻsish surʼati yuqori boʻlgan yirik korxonalar Andijon tumani (149,9 %), Qoʻrgʻontepa tumani (137,6 %) va Andijon shahar (128,0 %) ni tashkil etdi. Xonobod shahar, Asaka va Buloqbosh tumanlarida ulgurji savdo bilan shugʻullanuvchi yirik korxona faoliyati boʻlmagan.

2019 yil yanvar-aprel oylarida oʻtgan yilning shu davriga nisbatan kichik tadbirkorlik (biznes) sub'ektlarining savdo aylanmasidagi oʻsish sur'ati, foizda



**2019 yil yanvar-aprel oylarida o'tgan yilning shu davriga
nisbatan mikrofirmalarning savdo
aylanmasidagi o'sish sur'ati, foizda**




**2019 yil yanvar-aprel oylarida o'tgan yilning shu davriga
nisbatan kichik korxonlarning savdo
aylanmasidagi o'sish sur'ati, foizda**



**2019 yil yanvar-aprel oylarida o'tgan yilning shu davriga
nisbatan yakka tartibdagi tadbirkorlarning savdo
aylanmasidagi o'sish sur'ati, foizda**



**2019 yil yanvar-aprel oylarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan
yirik korxonalar savdosi**



2019 yil yanvar-aprel oylarida umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi bo'yicha yirik korxonalar faqatgina Andijon tuman (1587,6 mln.so'm) va Andijon shahar (1368,6 mln.so'm) larida mavjud bo'lib jami o'tgan yilga nisbatan 83,9 % ni tashkil etdi. Jamiga nisbatan ulushi 6,6 foizni tashkil qildi.

Andijon viloyat Statistika boshqarmasi
“Tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi” bo'limi

Tel.: (71) 230 – 82 – 53